

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 545

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 548

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 552

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 557

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 561

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 569

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи sifatiga erishish omillari 572

FALSAFA**A.A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 579

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 583

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 588

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 593

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korruksiyaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 597

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 602

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 606

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 610

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 614

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 618

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 625

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 631

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 635

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 638

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 643

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 648



ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КООПЕРАТИВОВ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ

ACTIVITY OF AGRICULTURAL COOPERATIVES OF UZBEKISTAN UNDER THE NEW ECONOMIC POLICY

Ahrorbek G'aniyev Abduraxim o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) davrida Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda kooperatsiya harakatining rivojanishi va uning xususiyatlari tahlil etilgan. O'zbekiston SSRdagi qishloq xo'jalik kooperativlarining rivojanish sur'ati va ixtisoslashuv jarayonlari ga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация

В статье анализируется развитие кооперативного движения и его особенности в Туркестанской АССР и Узбекской ССР в период новой экономической политики (НЭП). Представлены сведения о темпах развития и процессах специализации сельскохозяйственных кооперативов в Узбекской ССР.

Abstract

The article analyzes the development of the cooperative movement and its features in the Turkestan Autonomous Soviet Socialist Republic and the Uzbek SSR during the period of the New Economic Policy (NEP). Information is presented on the pace of development and processes of specialization of agricultural cooperatives in the Uzbek SSR.

Kalit so'zlar: yangi iqtisodiy siyosat, kooperatsiya, qishloq xo'jalik kooperativlari, matlubot kooperatsiyasi, dehqon xo'jaliklari, pul-moliya siyosati, qishloq xo'jalik banki, mahsulot ayriboshlash, kredit tizimi.

Ключевые слова: новая экономическая политика, кооперация, сельскохозяйственная кооперация, потребительская кооперация, крестьянские хозяйства, денежно-финансовая политика, сельскохозяйственный банк, товарообмен, кредитная система.

Key words: new economic policy, cooperation, agricultural cooperation, consumer cooperation, peasant farms, monetary and financial policy, agricultural bank, commodity exchange, credit system.

KIRISH

Sovet mamlakatida 1921-yilda yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ga o'tilishi bilan kooperatsiya tizimi uchun bir qator imkoniyatlar yaratilishi barobarida uning faoliyatida ayrim muammolar ham vujudga keldi. 1921-yilning mart oyida bo'lgan Kompartiyaning X syezdida oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi munosabati bilan kooperatsiya tizimidagi siyosatni ham o'zgartirish masalasi o'rtaqa tashlandi. Chunki, yangi iqtisodiy siyosat kooperatsiyalarga huquqiy jihatdan erkinlik berishni taqozo etardi.

Kooperatsiya tizimini tubdan qayta qurish juda qiyin va uzoq vaqt oluvchi muammo hisoblanar edi. Mafkuraviy jihatdan mayda burjua nazariyasi hisoblangan "mustaqillik", "erkinlik", "o'z-o'zini muammolarini xal qilish" tamoyillari yo'q qilingan edi. Shu bilan birga partiya rahbariyatida kooperatsiyalarni davlat tasarrufida tutish tarafdarlari juda ko'p edi. Bolsheviklar rahbari Lenin kooperatsiyalarni mustaqil xo'jalik tashkiloti sifatida saqlab qolish, axolining keng qatlamlarini, asosan dehqonlarning iqtisodiy manfaatlarini qondirish yuzasidan kooperatsiya formalarini kengaytirish dasturini ilgari surdi.

Ilk davrda yuzaga kelgan muammolar asosan davlat va kooperativ tashkilotlarning funksiyalarini kengaytirish, kooperativ harakatni stimullahtirish metodlari, dehqonlarning alohida ijtimoiy qatlamlari iqtisodiy qiziqishlari xarakterini aniqlash, kooperatsiyalarning vaqtinchalik xo'jalik formasi sifatidagi roli masalalari edi [1. B.260].

1918-1920 yillarda umum davlat kooperativlarini tashkil etishdek katta vazifa kun tartibiga qo'yilgan edi. Biroq kooperatsiyaning oziq-ovqat komissarligiga bo'ysunishi uning mustaqilligini hamda tashabbuskorligini keskin cheklab qo'ydi. Matlubot, qishloq xo'jaligi, xunarmandchilik-sanoat kooperativlarining o'zaro yaqinlashuvni kooperativ yacheykalar funksiyalarini o'zaro aniqlash zaruratin yuzaga chiqardi, bu yacheykalar funksiyalarini yanada murakkablashtirdi. Oziq-ovqat rasvyorstkasi sharoitida aholining kooperativlarga bo'lgan qiziqishi pasayib ketgan edi. Bu esa butun kooperatsiya tizimi faoliyatining zaiflashuviga sabab bo'ldi. Shunisi xarakterlik, 1921-yil bahorida kooperatsiyaning 53 ming taqsimot puktalaridan faqat 15 mingtasi tovar ayrboshlash funksiyasiga ega bo'lgan edi, xolos [2. B.79].

Sovet hokimiyatining dastlabki yilaridagi kooperativ qurilishi tajribalarini tahlil qilish shahar va qishloq aholisini kooperatsiyalashning haqiqiy ilmiy dasturini ishlab chiqish zaruratin yuzaga chiqardi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish haqiqiy ma'noda mayda tovar ishlab chiqaruvchilarga birmuncha erkinlik berdi. Bunday sharoitda mahsulot ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish uchun kooperatsiyalar tizimini yangi siyosatga mos ravishda tashkil etish lozim edi. Qisqacha aytganda, kooperatsiya mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda asosiy vosita bo'lishi kerak edi.

Kompartiyaning X syezdi qarorlari bo'yicha kooperatsiya tizimi yangi yo'nalishda tashkil etila boshladi. Barcha turdag'i kooperatsiyalar mahalliy ayrboshlash tashkilotlariga birlashtirildi va ular umumi y davlat mahsulot ayrboshlash funksiyasini bajarishi ko'zda tutildi. Matlubot kooperatsiyalaridan qishloq xo'jalik va hunarmandchilik kooperativlari ajralib chiq qoshladi. Kooperatsiyalarga kambag'al qatlamlarning iqtisodiy ahvoli e'tiborga olingan holda tabaqalashtirilgan a'zolik badallari belgilandi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tilishi bilan kooperatsiyalarga o'z vositalari bo'yicha hoxlagan tadbirlarni o'tkazish huquqi berildi. Ularga quyidan to yuqorigacha to'la mustaqillik berildi, shuningdek, ilgari davlat mulkiga olingan inshoot va binolar yana kooperativlarga qaytarildi [3. B.86-87].

Barcha kooperatsiya tizimining umum davlat mahsulot ayrboshlash tashkilotiga bog'lanishi sovet davlatining aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda va barcha mahsulotlarni o'zaro ayrboshlash uchun ular umumi y ekvivalentni aniqlash va ayrboshlash tartiblarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bularning barchasi yangi iqtisodiy siyosat sharoitida kooperatsiyalarini ijtimoiy mohiyatini aniqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Biroq bu davrda ham kooperatsiyalar sovet davlatining rahbarligida va qattiq nazorati ostida faoliyat ko'sata boshladi. Bu esa kooperatsiyalar tashabbuskorligi va mustaqillishini ma'lum darajada cheklab qo'yari edi. Shunga qaramay, yangi iqtisodiy siyosat sharoitida kooperatsiyalarning xo'jalik ishlab chiqarishi borasidagi ahamiyati oshib, ularning bu boradagi faoliyati kengayib bordi. Kooperatsiyalar faoliyati bozor munosabatlari bilan chambarchas bog'langan edi. Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida erkin bozor va kooperatsiyalar munosabati xususiy savdoni muvozanatga solishda muhim vosita bo'ldi. Umuman, bu yillarda xususiy tadbirkorlik munosabatlari rivojlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kompartiya X syezdi qarorlaridan kelib chiquvchi kooperatsiya siyosatining yangi vazifalari Leninning 1921-yil 9-mayda RKP(b) Markaziy Komiteti va barcha partiya tashkilotlariga yo'llagan "Kooperatsiya to'g'risida" deb nomlangan xatida o'z aksini topdi. Bu xatda kooperatsiyalarning siyosiy jihatdan tutgan o'mri va vazifalari haqida nazariy fikrlar ilgari surilgan edi. Kooperatsiyalarning siyosiy roli, — deb ta'kidlangan edi xatda, — nafaqat millionlab aholi qatlamini birlashtirishda, balki ular chayqovchilikka qarshi kurashda, mayda ishlab chiqaruvchilarning anarxistik ko'rinishdagi faoliyatlarini bartaraf etishda hamda ularni nazorat qilishda ham o'ta muhim ahamiyatga egadir" [4. B.226-227].

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida qishloq xo'jalik va hunarmandchilik-sanoat kooperativ tizimlari oldida bir qancha muammolar turar edi. Ular zimmasiga mayda yakka xo'jaliklarni iqtisodiy jihatdan birlashtirish, ularni zarur texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlash, fan va texnika yutuqlari asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirib borish vazifalari yuklangan edi.

Kooperatsiyalarni quyidan to yuqorigacha xo'jalik mustaqilligini tiklash uning ish faoliyatidagi quyidagi tamoyillarni tan olish bilan belgilandi: kooperativlarga ko'ngilli ravishda a'zo bo'lish, moddiy manfaatdorlik, a'zolik badallari va paylar bo'yicha foydalarni taqsimlash. Bu tamoyillarning tan olinishi kooperatsiyalarning xo'jalik jihatdan mustaqil ish yuritishini ta'minladi.

SIYOSAT

Qishloqda tikelash jarayonlari mahsulot ayriboshlashni jonlantirish bilan boshlandi. Bu esa matlubot kooperatsiyalarining nisbatan dinamik rivojlanishi bilan asoslanadi. Matlubot kooperatsiyalarining funksiyasi Butunrossiya Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yil 7-apreldagi "Matlubot kooperatsiyalari to'g'risida"gi dekreti bilan aniqlashtirib berildi. Dekretga muvofiq "Sentrosoyuz" oldiga mahsulot ayriboshlashni tashkil etish, shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashni zudlik bilan yaxshilash, sanoatni xomashyo bilan, qishloq aholisini sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Dekretning butun mazmuni shahar bilan qishloq o'tasida mahsulot almashinuvini yo'lga qo'yish va rivojlantirishga qaratilgan edi [5. B.230-233]. Biroq og'ir iqtisodiy sharoitlar tufayli koperatsiyalar baribir davlat manfaatlari uchun xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan edi. Bu bir taraflama mo'ljal bir qator salbiy oqibatlarga ham sabab bo'ldi. Masalan, 1921 yil oxirlarida kooperatsiyalar faoliyati tahlil qilinganda, umumiyl holat ko'rinishi shunday bo'lganki, kooperatsiyalarning asosiy faoliyati sanoat ishchilari va shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat bo'lib qolgan, oziq-ovqat yetishtiruvchi qishloq aholisini esa zaruriy asbob-jihozlar, uskunalar bilan ta'minlash masalasiga yetarli e'tibor qaratilmagan. YA'ni, qishloq shaharga yetkazib bergen mahsulot darajasida shahardan sanoat mollarini olmagan. Bundan tashqari bir qator obyektiv qiyinchiliklar ham bor edi. Chunonchi, qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi tobora qisqarib borardi, transport ham vayron qilingan edi. Kooperatsiyalarning pul va tovar resurslari hali juda qashshoq edi, dehqonlarning sotib olish imkoniyatlari xanuz juda past darajada edi.

Kooperatsiyaning jonlanishiga davlat tomonidan ko'rsatilgan yordam asosiy ta'sir ko'rsatdi. "Sentrosoyuz" sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'tasida asosiy vosita sifatida qo'yildi. Kooperatsiyalar kredit, soliq, narx-navo, mahsulot bilan ta'minlash sohalarida bir qator imtiyozlarga ega bo'ldi. Bular kooperativ orqali mahsulot ayriboshlashning o'sishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Faqatgina 1921-yilning sentabridan dekabr oyi o'talarigacha "Sentrosoyuz"ning savdo operatsiyalari hajmi 2 milliard so'mdan 80 milliard so'mga, ya'ni 40 barobarga o'sdi. Davlat organlariga shartnoma bo'yicha topshirilgan mahsulotlar hajmi 5 martaga oshib, 30 milliard so'mdan 146 milliard so'mga yetdi [1. B.266].

"Sentrosoyuz" ma'lumotlariga ko'ra, 1922-yilda kooperatsiya tizimining umumiyl savdo hajmi (shahar va qishloqda) 236 million so'mni tashkil etdi yoki butun mamlakatdagi umumiyl savdo aylanmasining 15-17 foizini tashkil qildi. Quyi iste'mol ommasining faolligi ham o'sa boshladi. 1921-yil 1-oktabridan 1923-yil 1-yanvarigacha ularning soni 9,3 mingdan 11,5 mingtaga o'sdi [6. B.334]. O'z navbatida savdo aylanmasi ham o'sdi. 1922-1923 xo'jalik yilida qishloq iste'molchilariga 154 million so'mlik sanoat mollarini va qishloq xo'jalik mahsulotlari sotildi yoki 1921-1922 xo'jalik yildagiga nisbatan 40 foiz ko'proq bo'ldi. Aholining quyi qatlamlariga nisbatan amalga oshirilgan savdo 53 foizga o'sdi [6. B.334].

Turkiston ASSR qishloq xo'jaligini tikelashda va yanada rivojlantirishda kooperatsiya sezilarli rol o'ynay boshladi. U o'n minglab mayda xo'jaliklar o'tasida iqtisodiy aloqalar o'matishda, mehnat unumdonorligini oshirishga, dehqonlarning moddiy ahvolini yaxshilashga, davlat korxonalarini zarur xom ashyo bilan ta'minlashga yordam ko'rsatishi zarur edi. Kooperativ harakat qishloq xo'jaligida ustuvor rivojlanishga ega bo'ldi. Shu bilan birga dastlabki yillarda Turkiston Avtonom Respublikasida kredit kooperatsiyasi ancha kengroq ommalashdi. Shuni ham aytish kerakki, Turkiston qishloqlarida qarz berish muammosi zaif sohalardan edi. Bu yerda boy-sudxo'rlik va savdo kapitali asosiy mavgeni egallardi. Undan 1921 -1922 yillarda dehqonlarning 80-90 foizi qarz oldi. Davlat yo'li bilan kredit berish dehqon xo'jaliklarining faqat 15-20 foizini ta'minlar edi [7. B.69].

Turkiston ASSRda boy-sudxo'rlik va savdo kapitaliga qarshi kurash vositalaridan biri dehqonlarning o'zaro yordam jamiyatining tashkil etilishi bo'ldi. Bu jamiyat 1923 yilda paydo bo'ldi. 1925-yilda O'zbekistonda bu jamiyatning 809 ta sho'basi bor edi [7. B.15]. O'zaro yordam jamiyatlari kam quvvatlari dehqon xo'jaliklariga imkon qadar yordam ko'rsata boshladi. Biroq ularning moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan edi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kredit kooperatsiyasining asosiy formasi sifatida kredit, ssuda-omonat hamkorliklari yuzaga keldi. Bunday hamkorliklarni tashkil etish Turkiston ASSR Sovetlari Markaziy Ijroiya komitetining 1922 yil 15 avgustdagagi qarorida qabul qilindi. 1923 yil boshlarida TASSRda 275 ta kredit, ssuda-omonat hamkorliklari faoliyat ko'rsata boshladi. Ular vositasida qishloq aholisi qishloq xo'jalik kooperatsiya orqali kredit bilan ta'minlana boshladi. Bu qarorga binoan, dehqon xo'jaliklariga

hamkorlikda yerga ishlov berish qishloq xo'jalik uyushmalarini tashkil etish va xo'jaliklarni asbob-anjomlari bilan ta'minlash huquqi ham berildi [8. B.253].

TASSRdagagi qishloq xo'jalik kooperativlariga 1922-yil aprel oyida tashkil etilgan "Turkselxozsoyuz" umumiy rahbarlik qila boshladi. Bu iitifoqning kengayishi va markaziy hukumatning qo'llab-quvvatlashi natijasida 1924-yilda qishloq xo'jalik kredit kooperatsiyasi qishloq aholisini kreditlashtirishda yetakchilik qila boshladi. Shuningdek, u paxtani kredit orqali kontraktatsiya qilishda ham paxtakorlar bilan davlat o'rtaida vositachilik qila boshladi [8. B.253]. Kredit miqdori ham yirma-yil ortib bordi. Masalan, 1923-yilda ekishdan oldingi, chopiq davridagi va paxta terimi davridagi dehqonlarga berilgan kredit miqdori 14 million 260 ming 406 rublni tashkil etdi. Bu davrda xususiy sarmoyadorlar tomonidan barcha paxtanining faqat 3 foizi kreditlashtirildi, xolos.

Sovet davlati 1923-yilda qishloq xo'jalik kreditining asosiy kapitalini tashkil etish maqsadlariga oltin xisobida 30 million rubl miqdorida mablag' ajratdi. Kredit jamiyatlari soni keskin ko'payib bordi. Agar 1922-yilning 1-iyuligacha bunday kooperativlar 616 ta bo'lgan bo'lsa, 1923-yil 1 yanvariga kelib ular soni 799 taga, 1-iyulida esa 2588 taga, 1924-yil boshlarida esa 3850 taga yetdi [9. B.127].

1923-yil oxirlarida Turkistonda 1169 ta kredit-kooperativ jamiyatlari faoliyat olib bora boshladi. Uning asosiy a'zolari O'rta Osiyo qishloq xo'jalik banki vositachiligidagi ssuda va kredit bilan ta'minlandilar [7. B.69]. Kredit yilda 2 marta berilgan. 1923-yilda uning miqdori oltin xisobida 822605 rublni, 1924-yilda esa 2176309 rublni tashkil etdi. Bu kredit summasidan 28 mingdan ortiq dehqon xo'jaliklari bahramand bol'dilar.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining faol tovarlashuvi keyingi yillarda dehqon xo'jaliklari daromadlarining oshib borishiga va qishloq iste'molchilar ittifoqining rivojlanishi uchun qulay sharoitlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatdi. 1923-1924 xo'jalik yilida qishloq matluboti uyushmalariga a'zo bo'lgan dehqon xo'jaliklari soni 39 foizga o'sdi. Qisqacha aytganda, matlubot kooperatsiyalari yangi iqtisodiy siyosat talablari asosida rivojiana boshladi. 1923-yil 28-dekabrda Butunittofq Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti "Matlubot kooperatsiyalarini ko'ngilli a'zolik asosida qayta tashkil etish to'g'risida" dekret chiqardi. Kooperatsiyalar moliyaviy resurslarining ko'payishi va unga a'zo bo'lismning moddly manfaatdorligining oshishida muhim rol o'ynadi. Ko'ngilli a'zolik tamoyillari 1924-yil 20mayda qabul qilingan "Matlubot kooperatsiyalarini to'g'risida"gi umumittifoq dekretida ham asosiy o'rinn tutadi. Bu dekretga muvofiq matlubot kooperatsiyasi mustaqil ko'ngilli, ommaviy tashkilotga aylandi, nisbatan mayda quyi kooperativlar endi ancha yirik kooperativlarga birlasha boshladilar. Kooperativlarga a'zo bo'lism va pay badallari tamoyili to'la tiklandi. Dekretga ko'ra, kambag'al va o'rtahol dehqonlarga, ishchilarga matlubot kooperativlariga a'zo bo'lismalarida yuqori bo'limgan a'ozlik badallari belgilandi. A'zolik payining yuqori miqdori 50 tiyinga, a'zolik badali 5 rublga tenglashtirildi [10]. Bu esa kooperativlarning moliyaviy holatini yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatdi.

Kooperatsiyalarga qishloq aholisining ishonchi va qiziqishi tobora oshib bordi. 1925-yil oxirlarida Ittifoq bo'yicha matlubot kooperatsiyasining 25,6 ming uyushmasi mavjud bo'lib, ular o'zida 9,4 million dehqon xo'jaligini birlashtirgan edi. Ular 51,5 mingta turli savdo muassasalariga xizmat ko'rsatar edi [11. B.55]. Butun ittifoq bo'ylab kooperatsiyaning qishloqlardagi quyi tarmoqlari rivojlanishi va a'zolar sonining o'sib borishi kuzatildi. Xususan, O'zbekiston SSRda 1925-yilda qishloq xo'jalik kooperatsiyasi jadal rivojlanib, aholining keng qatlamlarini o'zida birlashtira boshladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1925-yilning 1-oktabr holatida O'zbekistonning barcha viloyatlari bo'yicha 11 ta rayon, 723 ta qishloq xo'jalik kooperativ uyushmalari bo'lib, ular o'zida 260 877 xo'jalikni birlashtirgan edi [12. B.258].

O'zbekiston SSR matlubot kooperatsiyasi yangi iqtisodiy siyosat davrida Ittifoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan ortda qolgan, bunda asosiy o'sish qishloq kooperatsiyasi hisobiga bo'lgandi. Matlubot kooperatsiyasi ijodiy tashabbus sifatida emas, balki davlat tomonidan tepadan turib tazyiq o'tkaziladigan, unga tovar aylanishini, chakana savdoni nazorat ostiga olib, bu sohada xususiy sektorning erkinligini cheklash imkonini beradigan organ sifatida qaralar edi. Lekin umuman olganda, davlatning xomiylilik siyosati respublikada matlubot kooperatsiyasi tarmoqlarini yo'lga qo'yishda ijobjiy rol o'ynadi [13. B.80].

Matlubot kooperatsiyalari bilan bir qatorda qishloq xo'jalik va hunarmandchilik-sanoat kooperatsiyasi tizimi ham o'z faoliyat doiralarini kengaytirib bordi. Bular matlubot kooperatsiyalari

SIYOSAT

ehtiyoji uchun emas, balki qishloqning xo'jalik extiyojlari uchun xizmat ko'rsatar edi. Qishloq xo'jalik kooperatsiyasi vazifalariga kredit tashkil etish, qishloq xo'jalik jihozlari ta'minoti, ishlab chiqarishni hamkorlik asosida tashkil etish kabilar bilan bir qatorda qishloqning kam quvvatlari qatlamlari manfaatlarini himoya qilish ham kirar edi.

XULOSA

Kooperativlarning ixtisoslashuvi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Kooperativlar ishlab chiqarishning intensivlashishi, murakkab texnika vositalarining qishloqqa kirib kelishi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarining qishloqning o'zida birlamchi qayta ishlanish jarayoniga dehqonlarning qiziqishining ortishiga vositachilik qila boshladи. Qishloq xo'jalik kooperativlarning o'sib borishi natijasida, 1923-yil 10-oktabridan 1924-yil 1-oktabrigacha yordamchi ishlab chiqarish kooperativlari (mashina, meliorativ, chorvachilik va boshqa) 2,2 barobarga o'sdi. Shuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash va qayta ishlash kooperativlari – sut, yog' ishlab chiqarish, bog'dorchilik, poliz, lavlagi, kartoshka va boshqa kooperativ tarmoqlari ham ko'payta boshladи va ular 22,4 foizga o'sdi [14. B.292]. Bu esa qishloq xo'jalik kooperativlarning maxsus tarmoqlari markazlari – "Lnotsentr", "Soyuzkartofel", "Maslotsentr", "Plodovinsoyuz", "Ptitsevodsoyuz" va boshqalarning tashkil etilishiga imkon berdi va bular dehqon xo'jaliklarining tovarlashuvining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, qishloq xo'jalik kooperativlari tarmoqlari qishloq va shahar o'tasidagi iqtisodiy aloqalarning jonlanishiga ham ijobji ta'sir ko'rsatdi. Qishloq xo'jaligi bozor bilan chambarchas bog'langan rayonlarda kooperativlar yuqori ko'lamda rivojlna boshladи. Tiklash davrining oxirlarida (1925-yil oktabri) butun mamlakat miyosida qishloq xo'jalik kooperatsiyasi 54,8 ming turli ko'rinishdagi uyushmaga ega bo'lib, ular 6,5 million dehqon xo'jaliklarini o'zida birlashtirgan edi. Kooperatsiyalarga birlashgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 28 foizini tashkil etar edi. Alovida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan rayonlarda, jumladan kartoshkachilikda 66-77 foiz dehqon xo'jaligi, sut mahsulotlari yetishtirishda 40-90 foiz, tamakichilikda 80 foiz, lavlagichilikda 80 foiz, paxtachilikda 71,3 foiz, zig'ir yetishtirish sohasida 80 foiz dehqon xo'jaliklari kooperatsiyalarga birlashgan edi [14. B.294].

Xullas, yangi iqtisodiy siyosat sharoitida kooperativ harakat o'zining mustahkam asosiga ega bo'ldi, tovar almashuv munosabatlari o'sib, dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish mahsulorligi ham ortib bordi. Dehqon xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyatining alovida sohalarining turli kooperativ tizimlari tomonidan qamrab olinishi kelgusida kooperativlarning quyi formalaridan yuqori formalariga o'tishga zamin tayyorladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. История крестьянства СССР. История Советского крестьянства. В 5-ти томах. Том 1. Крестьянство в первое десятилетие Советской власти, 1917-1927. – Москва: Наука, 1986.
2. Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода Советского государства к НЭПу. – Ташкент: Наука, 1965.
3. Голованов А.А. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения 1917-1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992.
4. Решения партии и правительства по хозяйственным вопросам. Сборник документов. Том 1. Сост. К.У. Черненко и М.С. Смирнова. – Москва: Политиздат, 1967.
5. Директивы КПСС и Советского правительства по хозяйственным вопросам. 1917-1957 гг. Сборник документов в 4 томах. Том 1. – Москва: Госполитиздат, 1957.
6. Сборник статистических сведений по Союзу ССР. 1918-1923. За пять лет работы Центр. стат. упр. – Москва, 1924.
7. Ризаев Г. Сельское хозяйство Узбекистана за 40 лет. – Ташкент: Фан, 1957.
8. Голованов А.А., Сайдов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте второй половины XIX – первой трети XX вв. – Самарканд, 2007.
9. Сельскохозяйственная кооперация в системе государственного капитализма. – Москва, 1962.
10. http://elib.uraic.ru/bitstream/123456789/3445/1/sovetskaya_yustitsiya_1925
11. 40 лет советской потребительской кооперации. 1917-1957 гг. – Москва: Изд-во Центросоюза, 1957.
12. Ўзбекистон Миллый архиви, Р.197-фонд, 1-рўйхат, 72-иш.
13. Фойиназаров Ш. Ижтимоий ривожланиш сабоқлари (20-йиллар таҳлили). – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
14. Советское народное хозяйство в 1921-1925 гг. Под ред. И.А. Гладкова. – Москва: Изд. АН. СССР, 1960.